



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024 yil 13-dekabr, № 258 (8881)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



AHOLI BANDLIGI VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRADIGAN MUHIM TARMOQ

Prezident Shavkat Mirziyoyev 12-dekabr kuni to'qimachilik va charm sanoatidagi islohotlar natijadorligini yanada oshirish chora-tadbirlari bo'yicha yig'ilish o'tkazdi.

Bu tarmoqlar aholi bandligi va eksportda katta o'ringa ega. Xususan, ularga tegishli korxonalarda 430 ming fuqaro ish bilan ta'minlangan. Yengil sanoatning jami ishlab chiqarishdagi ulushi 14 foizni, eksportda 16 foizni tashkil qiladi.

Lekin bugungi murakkab sharoitda tashqi bozordagi vaziyat tez o'zgarayapti. Buning ta'sirida eksport narxlar kalava ipda 9 foizga, gazlamada 15 foizga, tayyor mahsulotda 13 foizga tushgan. Asosiy eksport bozorlarimizda tayyor mahsulot olish kamaygan.

Yig'ilishda bu vaziyatga moslashib ishlash, ichki imkoniyatlarni to'liq safarbar etish choralarini muhokama qilindi.

Janvar – noyabr oylarida to'qimachilik eksporti 2,6 milliard dollarni tashkil qildi. Sohadagi imkoniyatlar hisobiga buni oshirish mumkinligi ta'kidlandi.

Jahon bozorida tola narxi pasayib borayotgan sharoitda tola va kalava ipni chuqur qayta ishlashni ko'paytirish zarurligi qayd etildi. Buning uchun mato ishlab chiqarish va bo'yash korxonalarini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash choralarini belgilandi. Soha mas'ullari oldiga kalava ipni qayta ishlash darajasini 70 foizga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Shu bilan birga, bu yil qo'y va echki terisi eksportidan 10 foizlik yig'im bekor qilinishi natijasida 3 million dollarlik eksport shartnomalari tuzilgan. Ushbu tajribani kelasi yil ham davom ettirib, eksportni oshirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Charm sanoati korxonalarini xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash choralarini va kelgusidagi rejalar bo'yicha mas'ullarning hisoboti eshitildi.

Charm sanoatida bichuvchi, tikuvchi,

kosib kabi o'rta bo'g'in kadrlari yetishmayotgani, bu yo'nalishda yiliga bor-yo'g'i 167 nafar mutaxassis tayyorlanayotgani ko'rsatib o'tildi. Shu bois poyabzal ishlab chiqarish rivojlangan Andijon, Namangan, Farg'ona, Samarqand va Toshkent viloyatlaridagi yetakchi korxonalarini texnikumlarga bog'lab, dual ta'limni yo'lga qo'yish zarurligi aytiladi.

Yig'ilishda kelgusi yilga mo'ljallangan rejalar haqida ham axborot berildi.

Qayd etilganidek, yengil sanoat tarmog'iga 2 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb qilib, 82 ta yirik loyihani amalga oshirish hamda 25 mingta ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan. To'qimachilik mahsulotlari eksportini 4 milliard dollarga, charm mahsulotlari eksportini 250 million dollarga olib chiqish maqsad qilingan.

UY-JOY SOTIB OLUVCHILAR MABLAG'LARINI KAFOLATLAYDIGAN TIZIM YARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev uy-joy qurilishida aholi mablag'larini kafolatlash tizimiga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimiz aholisi 37 milliondan oshdi. Shu yilning o'zida 215 mingta oila paydo bo'ldi. Albatta, bularning barchasi uy-joyga talabni ko'paytiradi.

Joriy yilda 100 ming xonadonli ko'p qavatli uylar foydalanishga topshiriladi. Kelgusi yilda 120 ming xonadonli uylar qurilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, talab ko'pligidan foydalanib, bu sohada insofsiz biznes qilayotganlar ham bor. To'lov tizimi tartibga solinmagani, raqamlashtirish va ochiq-oshkorlik yo'qligi bunga yo'l ochib beryapti. Yangi uylarni olmoqchi bo'lgan odamlar pulini bank orqali emas, to'g'ridan-to'g'ri quruvchiga berayotgani uchun bu mablag'lar "soya"da qolyapti. Ko'p hollarda

uylarni topshirish muddati kechikib, aholi to'lagan pullar "muzlab" turibdi. Ulushdorlik shartnomalari hech qayerda ro'yxatga olinmay, faqat quruvchining manfaatiga xizmat qilayapti.

Shu bois davlatimiz rahbari 23-sentabr kuni qurilish industriyasi bo'yicha o'tgan yig'ilishda uy-joy sotib olishda aholi mablag'larini kafolatlaydigan tizim yaratish topshirig'ini bergan edi. Taqdimotda bu boradagi takliflar ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, xorijiy davlatlarda "yescrow" tizimi tajribadan o'tgan. Unga ko'ra buyurtmachi va tijorat banki o'rtasida tuziladigan shartnomaga asosan har bir qurilish inshooti bo'yicha "yescrow" hisobvarag'i ochiladi. Ko'chmas mulk uchun

kelishilgan mablag'lar ushbu hisobvara qo'rali amalga oshiriladi. Unda yig'iladigan mablag'lar asosida tijorat banklari buyurtmachi pasaytirilgan foizda kredit taqdim etadi. Qurilish bitgach xaridorning hisobvarag'idagi pul developer tashkilotga o'tkaziladi. Quruvchi o'z majburiyatini bajarmagan taqdirda, bu pul egasiga qaytarib beriladi. "Yescrow" hisobvarag'ida turgan mablag'larga undiruv qaratilmaydi.

Prezidentimiz takliflarni ma'qullab, bu borada huquqiy asos yaratish, mazkur tizimni qurilishga aloqador vazirlik va idoralarda integratsiya qilish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

O'ZA.

Uchrashuv

Ikki tomonlama aloqalar yanada mustahkamlanadi

Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Jazoirning O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va muxtor elchisi Muhammad Irki bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqotda ikki tomonlama hamkorlikning muhim jihatlari, shu jumladan, ijtimoiy-siyosiy va savdo-iqtisodiy sohalaridagi sheriklikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi. O'zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan qo'shma tashabbuslarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi.

Tomonlar ilmiy sheriklikning, ayniqsa, ta'lim sohasidagi hamkorlikning ahamiyatini qayd etdi. Islom tarixi va madaniy merosini o'rganishga bag'ishlangan qo'shma tadqiqot

loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini ko'rib chiqildi. Parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash masalalariga ham urg'u berilib, ikki mamlakat parlamentlari o'rtasidagi o'zaro rishtalarning samarali platformasini yaratish uchun do'stlik guruhlari ishini faollashtirish zarurligi ta'kidlandi.

Uchrashuv yakunida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish va belgilangan tashabbuslarni amalga oshirish ikkala tomon uchun ham birdek manfaat keltirishi aytilib o'tildi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Senatida

2025-YIL UCHUN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BUDJETI DASTLABKI TARZDA KO'RIB CHIQILDI

Senatning Budjet va iqtisodiy masalalar hamda Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya, shuningdek, Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitalarining qo'shma majlisida "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun senatorlar, ekspertlar hamda mas'ul vazirlik va idoralardan vakillari ishtirokida dastlabki tarzda muhokama etildi.

Dunyodagi murakkab va noaniq vaziyat, jahon iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuvi sharoitida O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolmoqda. 2025-yilga mo'ljallangan prognozga ko'ra iqtisodiy o'sish sur'ati 6 foizni tashkil etishi ko'zda tutiladi. 2026-2027-yillarda esa iqtisodiy o'sish sur'atlari mos ravishda 6,1 va 6,3 foizgacha oshishi kutilmoqda.

Kelgusi yilda iqtisodiy faollikning oshishi hisobiga budjetga soliq va soliqdan tashqari tushumlarni ko'paytirish orqali Davlat budjeti daromadlari 308,5 trln. so'm miqdorida prognoz qilinmoqda.

2025-yilgi Davlat budjeti xarajatlari 344,8 trln. so'm miqdorida rejalashtirilgan bo'lib, 52 foizi yoki 177,7 trln. so'mi ijtimoiy xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.



Senator minbari

YANGI QONUN XALQ MANFAATLARIGA XIZMAT QILADI

Har qanday qonunchilik hujjatining ahamiyati uning xalq manfaatlariga va davlat rivojiga qanchalik xizmat qilishiga bog'liq. Shu bois bugungi kunda qabul qilinayotgan qonunlar mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar bilan chambarchas ravishda takomillashtirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 3-dekabrda qabul qilindi. Ushbu qonun mamlakatda iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq tizimini soddalashtirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan navbatdagi muhim qadam bo'ldi.

Qonunning asosiy maqsadi – soliq yukini kamaytirish hisobiga bozor islohotlarini tezlashtirish va investitsiya muhitini yaxshilashdir. Bu kabi islohotlar mamlakatning iqtisodiy yuksalishini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Qonunda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etish,

yer solig'ini ikki baravarga oshirish tartibini bekor qilish va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliq miqdorini kamaytirish kabi choralar ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bog'liq soliq imtiyozlari joriy qilingani ko'pchilikning e'tiborini tortishi mumkin. Qonunga ko'ra quyosh panellari o'rnatish uchun belgilangan soliq stavkasi kamaytiriladi va ushbu imtiyozlar yanada kengaytiriladi. Quyosh panellarini o'rnatgan shaxslar uchun soliq to'lashda imtiyozlar belgilanishi bilan esa ekologik islohotlar yo'lida katta odimlar tashlanmoqda. Muhimi, quyosh panellari o'rnatilgan binolar uchun soliq stavkasi 25 foizdan kam bo'lmagan elektr energiyasini to'plash tizimiga ega bo'lgan panellar foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran o'n yil davomida amal qiladi. Shuning barobarida yangi qurilgan ko'p qavatli ishlab chiqarish binolariga soliq stavkasida ko'rsatilgan pasaytiruvchi koeffitsiyentlar ham joriy etilgan.



Muhokama

Yer uchastkalaridan foydalanish tartibi o'zgartirilmoqda

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP fraksiyasi tomonidan Agrar va suv xo'jaligi masalalari qo'mitasi bilan hamkorlikda yer uchastkalaridan foydalanish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Mazkur qonun loyihasi davlatimiz rahbarining 2020-yil 3-dekabrda Farmoni ijrosini ta'minlash va yer uchastkalaridan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. U bilan ayrim qonun hujjatlariga yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish turlarini joriy etishni nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritilmoqda.

Shuningdek, Yer kodeksi alohida bob bilan to'ldirilib, unda yer uchastkalaridan ruxsat etilgan foydalanish tizimini joriy qilish, ularni belgilash va o'zgartirish tartiblari aks etyapti. Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga esa fuqarolar tomonidan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni

amalga oshiruvchi organga turarjoyga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun o'z vaqtida murojaat etmaganlik bois jarimalarni yengillashtirishni nazarda tutuvchi qo'shimcha norma kiritilmoqda.

Munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasining mohiyatiga alohida to'xtalib o'tishdi. Xususan, O'zLiDeP saylovo'ldi dasturida kichik sanoat zonalarida investitsiya majburiyatini bajargan tadbirkorlarga yer uchastkalarini xususiy lashtirishga ruxsat berishning qonuniy asoslarini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilangani qayd etilib, qonun loyihasida nazarda tutilayotgan yangiliklar ushbu maqsadlarga uyg'un va hamohang ekanini ta'kidlandi.

Muhokamada qonun

loyihani yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo'yicha takliflar ilgari surildi. Xususan, deputat Saydullo Azimov qonun loyihasining 682-moddasi bo'yicha aniqlashtiruvchi savollarni ko'targan bo'lsa, deputat Shahnoza Xolmamatova bugungi kunda yer uchastkalaridan foydalanish yuzasidan atroflicha tushuntirish berib o'tdi.

Yig'ilishda deputatlar tomonidan ko'tarilgan barcha takliflar mas'ul qo'mita va ishchi guruh a'zolari tomonidan chuqur tahlil qilinishi va qonun loyihasini ikkinchi o'qishga tayyorlash jarayonida e'tiborga olinishi ta'kidlandi.

"Xalq so'zi".

Avtomobilsozlik sanoati:

ishlab chiqarish hajmi ko'payib, sifati yaxshilanadi

Fakt va raqamlar



Mamlakatimiz avtomobil sanoatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil davom ettirilmoqda. Xususan:

- 2025-yilda "BYD" avtomobillarining 60 ta detalini mahalliy lashtirish hisobiga elektromobil tannarxini pasaytirish;
- Mahalliy lashtirishga ko'maklashish markazi imkoniyatlarini ishga solib, hududiy korxonalar bilan kooperatsiya hajmini 2 karra ko'tarish;
- eksport hajmini 700 million dollardan oshirish;
- Samarqanddagi avtobus va yuk transporti korxonalarini tashqi bozorlarga olib chiqish ko'zda tutilgan.



2025-YIL UCHUN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT BUDJETI DASTLABKI TARZDA KO'RIB CHIQLIDI



Shuningdek, Davlat budgeti hisobidan qishloq xo'jaligiga 3,3 trln. so'm, suv xo'jaligiga 10,7 trln. so'm hamda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga 3,6 trln. so'm ajratilishi rejalashtirilgan.

Fiskal barqarorlikni ta'minlash maqsadida budget taqchilligini kamaytirish o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan fiskal siyosatning bosh maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Majlisda ushbu qonun yuzasidan iqtisodiyot va moliya vazirligi vakillarining axboroti eshitildi hamda senatorlar, ekspertlar va mahalliy Kengashlarning doimiy komissiyalari tomonidan qizg'in muhokama qilinib, fikr va mulohazalar bildirildi.

Muhokama yakuni bo'yicha Senat qo'mitalarining tegishli qarorlari qabul qilindi.

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi majlisida "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, unda tadbirkorlar hamda ishlab chiqaruvchilarga teng sharoit va qulay biznes muhitini yaratish, investitsiyalarni rag'batlantirish nazarda tutilmoqda.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbarining hududlarga tashriflari davomida tuman (shahar) mahalliy budgetlar daromadlarini oshirish bo'yicha belgilangan vazifalardan kelib chiqib, tuman (shahar) budgetlarining daromadlar tarkibi kengaytirilib, yangi manbalarni shakllantirilmog'da.

Muhokama davomida senatorlar 2025-yilgi Davlat budgeti bajarilishi ustidan mahalliy Kengashlarning tegishli doimiy komissiyalari bilan hamkorlikda parlament nazoratini amalga oshirishga kelishib olishdi.

Yakunda ko'rib chiqilgan masala bo'yicha qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Xuddi shuningdek, Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi majlisida ham ushbu qonun tahlil qilindi.

Senatorlar tomonidan ta'kidlandi, qonunda budget mablag'larini davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini bajarishga yo'naltirilishi, soliq va budget siyosatidagi o'zgarishlar tadbirkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilishi nazarda tutilgan.

Davlat budgetini shakllantirish va ijro etishda fuqarolarning ishtirokini, shuningdek, budget mablag'laridan

rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihazlash bilan bog'liq.

Muhokama so'ngida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Senatning Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi majlisida "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi qonun hamda 2025 - 2027-yillarga mo'ljallangan Budgetnoma muhokama qilindi.

Muhokama davomida 2025-yil uchun Davlat budgetida ham xarajatlarning ijtimoiy yo'naltirilgani saqlab qolingani, Davlat budgeti xarajatlarning asosiy qismi yoki 52 foizi ijtimoiy sohaga yo'naltirilgani alohida ta'kidlandi.

Xususan, 2025-yilda ta'lim va fan sohasi uchun 86,3 trln so'm (2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 17,8 foiz ko'p) yoki Davlat budgeti xarajatlarning 25 foizi miqdoridagi, sog'liqni saqlash sohasi xarajatlari uchun 41,3 trln so'm yoki 2024-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 19,8 foiz oshirilgan holda mablag' rejalashtirilmog'da.

Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarining Sirdaryo va Toshkent shahrida to'liq joriy etilishini yakunlagan holda ularni 2025-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Qashqadaryo viloyatlarida tatbiq etish ko'zda tutilmoqda.

Majlisda 2025-yilgi Davlat budgeti bajarilishi ustidan mahalliy Kengashlarning tegishli doimiy komissiyalari bilan hamkorlikda parlament nazoratini amalga oshirishga kelishib olishdi.

Shundan so'ng palma yog'i va uning fraksiyalardan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda foydalanishni kamaytirish to'g'risidagi masala ko'rib chiqildi. Chunki tarkibida gidrogenlangan palma yog'i mavjud bo'lgan mahsulotlar yurak-qon tomir va boshqa kasalliklarni keltirib chiqarishini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatimizga palma mahsulotlarining importi oshdi. Jumladan, O'zbekistonning Malayziyaning palma mahsulotlariga qiziqishi 2023-yilda 2022-yildagiga nisbatan 60 foizga oshgan. Tashvishlanarlisi, 2022-yilda O'zbekistonga import qilingan 86 ming tonna palma yog'idan 18 ming tonna gidrogenlangan palma yog'i hisoblanadi. Bu esa mamlakatimizda palma mahsulotlariga talab ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shu bois senatorlar tomonidan oziq-ovqat sanoatida palma yog'idan foydalanishni tartibga solish va aholini sifatsiz o'simlik yog'larini iste'mol qilishdan himoyalash zarurati mavjudligi, kelgusida mas'ul vazirlik va idoralarning bu boradagi o'rganish va xulosalari asosida qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risida takliflar tayyorlanishi ta'kidlandi.

Muhokama yakuni bo'yicha qo'mitaning tegishli qarorlari qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Masalaga oydinlik kiritildi

Ma'lumki, "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasining shu yil 9-dekabr kuni bo'lib o'tgan yig'ilishida chiqindilarni to'plash va olib chiqishda to'lov intizomini mustahkamlashga qaratilgan qonun loyihasi qizg'in muhokamaga sabab bo'lgan edi.

Ushbu loyihadagi chiqindi to'lovlaridan qarzi bo'lganlarni "SMS" orqali xabardor etib borish, qarzdorlik vujudga kelganligi to'g'risida ogohlantirilgandan keyin to'lov amalga oshirilmasa, ulardan elektr energiyasi uchun to'lovlarni qabul qilishni vaqtinchalik cheklash nazarda tutilgan.

Deputatlar qizg'in muhokama jarayonida bu masalada alohida o'rganishlar olib borish, ya'ni yangi kiritilayotgan tizimning joylarda ishlab bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar zarurligidan kelib chiqib, loyihani ko'rib chiqishni fraksiyaning keyingi yig'ilishiga qoldirgandi. Mas'ul idora vakillari esa e'tirozni qabul qilib, tez kunlarda ushbu masala bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etishga va'da bergandi.

Fraksiya tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan qonun loyihasi palata yalpi majlisi kun tartibiga ham kiritilmagan edi.

Kecha fraksiya tashabbusi bilan tashkil etilgan yig'ilishda ushbu qonun loyihasi atroflicha muhokama qilindi. Mas'ul idora vakillari chiqindi to'lovlaridan qarzi bo'lganlarni "SMS" orqali xabardor etib borish, qarzdorlik vujudga kelganligi to'g'risida ogohlantirilgandan keyin to'lov amalga oshirilmasa, ulardan elektr energiyasi

uchun to'lovlarni qabul qilishni vaqtinchalik cheklashni nazarda tutuvchi yangi tizimning ishlab tartiblari haqida batafsil ma'lumot berishdi.

Chiqindilarni to'plash va olib chiqishda to'lov intizomini mustahkamlashga qaratilgan yangi tizim bejiz ishlab chiqilmagani qayd etildi.

Ma'lumotlarga qaraganda, maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha aholiga ko'rsatilgan xizmatlar uchun debitor qarzdorlik hozirda 596 mlrd. so'mni tashkil etib, yil boshidagiga qaraganda 115 mlrd. so'm ko'paygan. Qarzdorliklarni undirish to'g'risidagi arizalarni sudlarga kiritish bo'yicha Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining hududiy organlariga yuklatilgan vazifa ham amaliyotda o'z samarasini bermayapti.

Yig'ilishda ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilib, fuqarolar alohida ogohlantirishdan keyin ham chiqindi bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etmasa, chiqindi bo'yicha qarzi



to'lanmaguniga qadar elektr energiya bo'yicha to'lovni amalga oshirmaslik taklif qilinayotgani ta'kidlandi.

Muhokama davomida fraksiya a'zolari Azamat Pardayev, Farhod Zayniyev va boshqalar qonun loyihasining mohiyatiga alohida to'xtalib, unga kiritilayotgan ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlaridan izoh so'rashdi. Xususan, elektr tarmoqlari va iste'molchilar o'rtasida tuzilgan shartnomalar qonun loyihasi qabul qilinganidan so'ng yana qaytadan tuziladimi, degan savol ko'tarildi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov ko'tarilgan barcha savol yuzasidan batafsil tushuntirish berib o'tdi.

Yig'ilishda berilgan takliflar qonun loyihasini maromiga yetkazish chog'ida e'tiborga olinadigan bo'ldi.

Tadbirkorlik subyektlari moliyaviy qo'llab-quvvatlanadi

Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi tomonidan O'zbekistonda faktoring xizmatlari bozori rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi ikkinchi o'qishga tayyorlanmog'da.

Qonun loyihasi muhokamasiga bag'ishlab o'tkazilgan ishchi guruh yig'ilishida deputatlar loyihani birinchi o'qishda muhokama etish chog'ida berilgan barcha taklifni chuqur tahlil qildilar. Ayrim normalar yuzasidan asosli takliflar berildi.

Ma'lum qilinganidek, mazkur

qonun loyihasida pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalashga (faktoring) oid munosabatlar tartibga solishdagi eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan normalardan voz kechilib, qonunchilikni Xususiy huquqni unifikatsiya qilish xalqaro institutining

Faktoring bo'yicha namunaviy qonuni asosida takomillashtirish nazarda tutilmog'da. Xususan, loyihadagi pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish bo'yicha taqinchi buzganlik uchun javobgarlikni bekor qilish, mijozning kontragenti norezident bo'lganda faktoring operatsiyalarini xorijiy valyutada amalga oshirishga ruxsat berish, pul talabnomasidan voz kechish to'g'risidagi xabarnomalarni garov

reestrda ro'yxatga olishni yo'lga qo'yish ko'zda tutilyapti.

Bundan tashqari, tadbirkorlik subyektlariga faktoring xizmati ko'rsatishga ixtisoslashtirilgan faktoring tashkilotlari tashkil etilishi belgilanmog'da. Faktoring tashkiloti faoliyati nobank kredit tashkiloti sifatida reestrqa kiritish vositasida Markaziy bankda hisob ro'yxatidan o'tgandan keyin amalga oshirilishi, shuningdek, faktoring tashkilotlarining faoliyati Markaziy bank tomonidan tartibga solinishi va nazorat qilinishi ifodalanyapti.

Ma'lum qo'mitada qonun loyihasini takomiliga yetkazish ishlari davom etmoqda.

Deputatlar faoliyati samaradorligi yo'lida

Ma'lumki, Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi nutqlarda hokimiyatning vakillik organlariga bo'lib o'tgan saylov jarayonlari sifatini yuqori baholab, siyosiy partiyalarning saylovdagi dasturlarida bayon etilgan qator tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaganini va siyosiy partiyalar fraksiyalari bu tashabbuslarni birinchi galdagi vazifalar sifatida belgilab, ularning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlashi zarurligini qayd etgan edi.

Shundan kelib chiqib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida deputatlarni parlament faoliyatining nazariy asoslari bilan yaqindan tanishtirish, ularning qonun ijodkorligi borasidagi kasbiy ko'nikmalarini yanada mustahkamlash maqsadida o'quv-seminarlar tashkil etildi. Ularda davlatimiz rahbari nutqlari parlament ishini tashkil qilishda muhim dasturiy hujjat ekani, ilgari surilgan takliflar quyi palata faoliyati natijadorligini oshirishga yordam berishi qayd etildi.

O'quv-seminarda quyi palataga kiritilayotgan

qonun loyihalari sifatini oshirish, amaliyotda samarali ishlaydigan qonunlarni qabul qilish, vazirlik va idoralar, hududlar rahbarlari deputatlar tomonidan joylarda aniqlangan muammolarni hal etishda qo'mitalar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yishga oid ishlarni tashkil qilishga e'tibor qaratilib, bu bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab olinadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid muhim vazifalarni hal etish hamda ijro hokimiyati faoliyati ustidan ta'sirchan

parlament nazoratini amalga oshirish bo'yicha Qonunchilik palatasiga aniq vakolatlarni berilgani ta'kidlandi. Xususan, Qonunchilik palatasi qo'mitalariga davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish tashabbusi bilan chiqish huquqi berildi. Bundan tashqari, parlament tekshiruvchi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senat a'zolari orasidan tenglik asosida tuziladigan birgalikdagi maxsus komissiya tomonidan o'tkazilishi belgilandi.

O'quv-seminarlarda deputatlarning qonunchilik tashabbusi, qonun loyihalari ko'rib chiqish va qabul qilish, ularni yuridik-texnik jihatdan rasmiylashtirish tartiblari bo'yicha batafsil ma'lumotlar berildi.

Qonunchilik palatasi hamda deputatlar korpusi faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan o'quv-seminarlar davom etadi.

"Xalq so'zi".

YANGI QONUN XALQ MANFAATLARIGA XIZMAT QILADI

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan bog'liq yangi me'yorlar ham o'zgaradi. Quyosh panellarini o'rnatishga ko'maklashish uchun imtiyozlar ko'rsatilib, yangi quurilmalar foydalanishga topshirilgan oydan e'tiboran uch yil davomida amal qiladi. Bu sohada foydalaniladigan quurilmalar va energiya manbalari to'lanadigan soliq stavkasi ham aniqlandi.

Qonunda yangi bino va inshootlar qurishni rag'batlantirish maqsadida qator vaqtinchalik soliq imtiyozlari joriy qilinishi ham iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida qurilish sohasidagi ishlar hajmi ko'payib, ish o'rnlari yaratiladi, shuningdek, investorlarning qiziqishlari ortadi.

Soliq siyosatiga kiritilgan o'zgarishlar Davlat budgeti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, daromadlar va soliqlar bo'yicha o'zgarishlar yangi moliya yilidan boshlab amalga oshiriladi. Qonunga kiritilgan davlat mulki va bo'sh turgan yer uchastkalariga oid yangi qoidalar iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi. Bu o'zgarishlar nafaqat iqtisodiyot rivojiga, balki mamlakatning ekologik barqarorligini saqlashga ham xizmat qiladi.



O'zbekistonda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari bozor islohotlarini kuchaytirish va yangi iqtisodiy yondashuvlarni joriy etishga intilishni ko'rsatadi. Bu qadamlar mamlakatning iqtisodiy barqarorligini saqlash, ekologik muammolarni hal qilishda muhim o'rin tutadi va xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni oshirishni ta'minlaydi.

Soliq yukini pasaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'murchiligini takomillashtirish iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilandi. Bu nafaqat mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, balki bozor islohotlarini jadallashtirishga qaratilgan muhim qarorlardan biridir.

Shuningdek, qonunda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bekor qilinishi, tamaki va alkogol hamda neft mahsulotlari va boshqa aksiz tovarlar bo'yicha soliq stavkalarini o'zgartirish nazarda tutilgan. Shu bilan birga, eksportga yo'naltirilgan daromadlar uchun qo'llaniladigan ayrim soliq imtiyozlari ham bekor qilinadi.

Qonunga kiritilgan qoidalar 2025-yil uchun Davlat budgetini ishlab chiqish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda budget daromadlarining kamayishini yoki ko'payishini nazarda tutuvchi barcha o'zgartirishlar kelgusi moliya yilining 1-yanvaridan boshlab amalga oshiriladi. Bu islohotlar nafaqat moliya va soliq tizimining shaffofligini ta'minlashga, balki investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. O'zbekistonda bozor islohotlarini amalga oshirish va mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan bunday qadamlar keyingi yillarda ham davom ettiriladi.

Qonunga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirishlarning barchasi aholi va tadbirkorlar manfaatlariga xizmat qilib, O'zbekistonning Konstitutsiyada qayd etilgan ijtimoiy davlat maqomiga to'la mos keladi.

Soliq va budget siyosati davlatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda 2025-yilga mo'ljallangan soliq va budget siyosatini amalga oshirishga yo'naltirilgan qonun, avvalo, soliq yukini kamaytirish va bozor islohotlarini tezlashtirishga qaratilgan. Bu, o'z navbatida, investitsiya muhitini yaxshilashga va mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga yordam beradi.

Qonunni qabul qilish orqali amalga oshiriladigan soliq islohotlari va budget siyosati o'zaro bog'liq bo'lib, ularning natijalari mamlakatning iqtisodiy va ekologik barqarorligiga yo'naltirilgan. Masalan, ekologik yo'nalishdagi soliq imtiyozlari, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari bog'liq yengilliklar, hududdagi "yashil" energiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi.

Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlarini 2028-yildan 2040-yilga qadar barcha turdagi soliqlardan (qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari) ozod qilish belgilandi. Imtiyozlar eksportning umumiy hajmi 50 foizdan ortiq bo'lgan yuridik

shaxslarga va 18 yoshdan oshgan bitiruvchilarning 50 foizi ishga joylashgan korxonalariga tatbiq etilgan. Shuningdek, nodavlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari hamda ularning faoliyati uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, o'quv va laboratoriya materiallari O'zbekistonga olib kelinganida 2030-yilga qadar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan.

Bundan tashqari, chet el o'qituvchilari va mutaxassislariga nisbatan ham soliq imtiyozlari mavjud. 2030-yilga qadar ular daromad solig'i olinmaydi, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari ijtimoiy soliqdan ozod etilgan. Bu imtiyozlar ta'lim muassasalarining zamonaviy jihozlar bilan ta'minlanishi, bino

Prezidentimiz tadbirkorlarga murojaat qilib, "Biz to'g'ri ishlayotgan, ish o'rnlari yaratayotgan, ilg'or texnologiyalarni joriy etayotgan, yangi mahsulotlar ishlab chiqarayotgan biznes vakillari uchun barcha sharoitlarni yaratishga tayyormiz. Lekin takror aytaman, sizlar ham ko'rib turibsizlar, xufiyona, ochiqqa chiqqan, soliq to'lamagan odamlar yonlaringda yuribdi. U bizga do'st emas, u iqtisodiyotimizga ham, bizga ham dushman", degan edi.

Yangi qonunda Yurtboshimiz urg'u bergan ushbu jihatlar e'tiborga olingan va u shak-shubhasiz, mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi.

va inshootlarni rekonstruksiya qilish va aholiga bepul ta'lim xizmatlari ko'rsatish uchun yo'naltiriladi.

Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va soliq siyosatini soddalashtirish amaliyoti, avvalo, fuqarolarning farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan, chunki buning natijasida Davlat budgetining tushumlari ko'payadi va aholining ijtimoiy imkoniyatlari yaxshilanadi. Shuningdek, soliq va budget siyosatiga oid o'zgarishlar munosabatlardagi raqobatbardoshligini oshirishga ham yordam beradi. Buning ortidan, investitsiyalarni jalb qilish, yangi ish o'rnlarni yaratish va iqtisodiy o'sishga katta to'siq bo'luvchi omillar bartaraf etiladi.

Abdusaid KO'CHIMOV,

Oliy Majlis Senatining Budget va iqtisodiy masalalar qo'mitasi a'zosi.

FRAKSIYALAR HAYOTI

O'zLiDeP

Ma'lumki, Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'lga qat'iy o'tgan jazo muddatini o'tayotgan 483 nafar shaxs Prezidentimiz Farmoni bilan afv etildi.



O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining quyi palatadagi fraksiyasi rahbari Aktram Haitov davlatimiz rahbarining mazkur Farmoni yurtimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining, xalqimizga xos bag'rikenglik, kechirimlilik, oliyanoblik va mehr-muruvvat ko'rsatish kabi ezgu fazilatlarining amaliy ifodasi ekanini alohida ta'kidladi.

"Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag'riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishlari hamda jamiyatda munosib o'rin topishlari uchun ularga ko'mak berishda biz, deputatlar ham faol ishtirok etishimiz zarur", dedi fraksiya rahbari.

"Milliy tiklanish" DP

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasining shu hafta boshida bo'lib o'tgan yig'ilishida zargarlik sanoatini yanada rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi qizg'in muhokamaga sabab bo'ldi.



Ushbu hujjatda ayrim qonun hujjatlariga zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchilarning qimmatbaho metallarga bo'lgan talabini qondirish va qonunchilikda mavjud bo'lgan byurokratik to'siqlarni liberallashtirishga qaratilgan bir qator o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilmoqda.

Fraksiya a'zosi Vasilisa Fayziyeva qonun loyihasi qimmatbaho metallar va toshlardan yasalgan zargarlik buyumlarining noqonuniy aylanmasini kamaytirishga qaratilgan qo'llab-quvvatlagan holda milliy brendni yaratishga ham alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi.

"To'g'ri, bu boradagi noqonuniy harakatlarga qarshi choralarini kuchaytirish kerak. Lekin berilayotgan har qanday imtiyozlar, avvalo, zargarlik sanoatini rivojlantirish va milliy brendni yaratishga qaratilishi lozim", dedi deputat.

"Adolat" SDP

Keyingi vaqtda mamlakatimizda firibgarlik yo'li bilan fuqarolarning xabarisiz kredit mablag'larini ularning nomiga rasmiylashtirish va mazkur kredit mablag'larini o'zlashtirish holatlari ortib bormoqda.



Raqamlarga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, 2024-yilning 8 oyida 800 dan ortiq fuqarolar nomiga 36 mlrd. so'mdan ziyod kredit mablag'lari rasmiylashtirib olingan. Bu esa ushbu masalaning huquqiy yechimini topish zaruratini ta'kidlaydi.

"Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Dilmurod Ismoilov "Deputatlar nima deydi?" telegramm kanalida kuni kecha Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida muhokama qilingan qonun loyihasi kredit sohasidagi munosabatlarni yanada takomillashtirishga qaratilganiga bilan ahamiyatli ekanini qayd etdi.

"Loyiha bilan aynan fuqarolar tomonidan ixtiyoriy ravishda o'zlarining nomiga kredit ajratish uchun cheklov o'rnatish mexanizmi joriy qilinayotib. Ya'ni bunda kredit olishi taqiqlangan shaxslar reestri yuritiladi. Kredit tashkilotlari va boshqa mikrooliyavlashtirish muassasalari tomonidan aynan shu reestrda ma'lumotlar ko'rib, tekshirilgandan so'ng kredit ajratish amaliyotini tatbiq etish nazarda tutilmoqda. Eng muhimi, agar ushbu taqiqlangan shaxslar reestrda ma'lumotlar tekshirilmasdan turib kredit ajratilsa, to'liq javobgarlik kredit yoki kredit ajratuvchi boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilishi belgilab qo'yilayotib. Shu bilan birga, kredit byurolariga o'z majburiyatlarini bajarmaganlik uchun ham javobgarlik ko'zda tutilmoqda. Albatta, mazkur qonun loyihasi firibgarlik yo'li bilan fuqarolarning xabarisiz kreditlarni ularning nomiga rasmiylashtirish va mazkur kreditlarni o'zlashtirish holatlarining oldini olishga xizmat qiladi", deydi deputat.

O'zXDP

Kuni kecha quyi palata majlisida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga jamoat transportidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishni nazarda tutuvchi qonun loyihasi birinchi o'qishda ko'rib chiqilib, nafaqat deputatlar orasida, balki ijtimoiy tarmoqda ham qizg'in muhokamalarga sabab bo'lgan edi.



O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zosi Qizilgul Qosimova qonun loyihasining g'oya va konsepsiyasi juda dolzarbligini qayd etib, amaldagi qonunchilikda jamoat transporti uchun alohida ajratilgan yo'laklarda boshqa transport vositalarining harakatlanganligi uchun javobgarlik nazarda tutilmagani va bu qatnov muntazamligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganiga urg'u berdi.

"Jamoat transportining tartibli harakatlanishi uchun sharoit yaratib berish lozim. Aholi, ayniqsa, nogironlari bo'lgan insonlarning jamoat transportidan erkin foydalanishlarini ta'minlash ham bugungi kunda juda muhim. E'tibor qaratadigan bo'lsak, alohida yo'lak ajratish masalasi butun dunyoda bor tajriba va bu ko'pgina rivojlangan davlatlarda muvaffaqiyatli ishlayapti. Shunday ekan, qonun loyihasi bilan jamoat transporti uchun alohida ajratilgan yo'laklarda harakatlanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilash nazarda tutilayotgani ayni muddao", dedi deputat.

O'zbekiston Ekologik partiyasi

Qonunchilik palatasining kuni kecha bo'lib o'tgan majlisida qurilishda chang va qum zarralarining havoga ko'tarilishini bartaraf etishga qaratilgan qonun loyihasi atrofchilik ko'rib chiqilgandi.



O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zosi Mohira Xo'jayeva ushbu qonun loyihasi yuzasidan munosabat bildirib, yurtimiz atmosferasida chang miqdori xalqaro normadan 10 barobar ortgani aholining haqli e'tiroziga sabab bo'layotganini ta'kidladi.

"Qonun loyihasi bilan qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun qurilish tashkilotlari mansabdor shaxslarining javobgarligini belgilash taklif etilayotganini qo'llab-quvvatlayman. Nega deganda, atrof-muhit qanchalik musaffo bo'lsa odamlarning sihat-salomatliligi mustahkamlanadi, kasalliklar kamayadi, umr ko'rish davomiyligi uzayadi. Eng muhimi, ekologik vaziyat yaxshilanadi, atmosfera havosi ifloslanishining oldi olinadi, qurilish tashkilotlarining mas'uliyati oshiriladi. Bularning barchasi esa har birimizning qulay atrof-muhitiga ega bo'lish borasidagi konstitutsiyaviy huquqlarimizni ta'minlashga xizmat qiladi", dedi deputat.

"Xalq so'zi".

SOLIQ VA YIG'IMLARNING ADOLATLI BO'LISHI TA'MINLANMOQDA

O'zbekistonda inson qadri va uning manfaati barcha narsadan ustuvordir. Shundan kelib chiqqan holda bugungi kunda soliq xizmati organlari tomonidan davlat va fuqarolar o'rtasidagi burch, majburiyatlarini adolatli, shaffof usulda bajarish uchun qulay sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Nuqtai nazar

Prezidentimiz tashabbusi bilan o'tgan yili mahalla institutining jamiyatimizda va aholi muammolarini hal qilishda birinchi bo'g'in sifatidagi roli oshirilib, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimidan iborat "mahalla yettilligi" tashkil etildi. Davlat xizmatchilari, xususan, soliq xizmati xodimlarining mahalla darajasiga tushib mahallabay ishlashi, har bir fuqaro, har bir subyektlar kesimida muammolarning hal qilinishi tadbirkorlar va aholiga keng qulaylik yaratmoqda.



Avtokameral tizimi - tadbirkorlarga dastyor

Aytish joizki, avtokameral tizimi tadbirkorlarga yaxshigina dastyor vazifasini o'tamoqda. Bu tizim ularga xatolarini o'z vaqtida tuzatib, majburiyatlarini bajarmaganlik uchun jarimalardan qalqon bo'ldi. Tadbirkorning xatosini topib, uni darhol jazolashni emas, aniqlangan xato va kamchiliklarni avval soliq to'lovchining o'ziga tushuntirish va kamchiligini ixtiyoriy tuzatish imkoniyati berilayotib. Shu o'rinda bir misol: 570 trln. so'mga ixtiyoriy ravishda qayta hisobotlar taqdim etildi, tadbirkorlarga nisbatan 216 trln. so'mlik moliyaviy jarimalar qo'llanilishining oldi olindi.

Tadbirkorlik subyektlari bilan yuzaga kelayotgan ayrim munozarali vaziyatlarda

"Fuqarolar qonun bilan belgilangan soliq va yig'imlarni to'lashi shart. Soliq va yig'imlar adolatli bo'lishi hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'stinlik qilmasligi kerak." O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi.



nizolarni sudgacha hal qilish amaliyotiga o'tilgan. Bunda, asosan, har qanday noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga hal etilishi tamoyiliga amal qilinmoqda. Bu esa, albatta, soliq to'lovchilarni ortiqcha ovoragarchilik va xarajatlardan xalos etmoqda. Joriy yilning o'zida 92,2 mlrd. so'mlik murojaatlar bo'yicha soliq to'lovchilarning pozitsiyalari qanoatlantirildi.

Aytish joizki, raqamlashtirish tadbirkorlik subyektlariga erkin va teng raqobat sharoitida, qulay ishlabarmonlik muhitida rivojlanish imkonini berib, ular safi kengayib borishida muhim omil bo'lmoqda. Raqamli islohotlar natijasida biznes subyektlarining "yashovchanlik" darajasi - uch yildan ortiq faoliyat ko'rsatayotganlar ulushi 72 foizga yetdi. Shuningdek, joriy yilning 1-dekabr holatiga ishlayotgan jami xo'jalik subyektlari soni 561,9 mingtaga, yakka tartibdagi tadbirkorlar soni 290,1 ming nafarga yetdi.

Fuqarolarga qancha qulaylik yaratilgan, undan shuncha keng foydalanadi. O'zini o'zi band etish tizimi aholi tomonidan juda qulay tizim o'laroq qabul qilindi. Yuzdan ortiq faoliyat turlari kiritilgan mazkur instrument mehnat bozorida "yashirin iqtisodiyot"ni "soya"dan chiqarish platformasiga aylandi. Qisqa vaqt ichida mustaqil faoliyat yuritib kelayotgan 4,3 mln. nafardan ortiq fuqarolarimiz mehnat qilishning qonuniy yo'lga o'tdi.

Birgina yengil avtomobilda yo'lovchi tashish faoliyatining o'zini o'zi band etgan shaxslar faoliyatiga turiga kiritilishi natijasida ilgari yashirin ishlagan 520,9 mingga yaqin taksi xizmatlari legallashtirildi.

Joriy yildan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida shaffof, teng raqobat muhitini

yaratish, qonunga itoatkor, halol tadbirkorlarni rag'batlantirib borishga xizmat qiluvchi mutlaqo yangicha tizim - Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi joriy etildi.

To'g'risini aytish kerak, shu paytga qadar ham tadbirkor biror talabga javob bermasa yoki muayyan shartlarni bajarmasa, unga nisbatan jazo choralarini qo'llanilardi.

Davlatimiz rahbari buning maqsad-mohiyatini o'tgan yili tadbirkorlar bilan o'tkazilgan ochiq muloqotda belgilab bergan edi. Shundan so'ng joriy yil 23-yanvarda imzolangan "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qaroriga binoan, tadbirkorlar faoliyat davri, rentabellik darajasi, to'lov intizimi, aholi bandligidagi o'rni, ish haqi kabi jihatlar ishlab chiqilgan mezonlar asosida toifalarga ajratildi. Ular soliq, adliya va sud organlari ma'lumotlari asosida shakllanadi. Har bir tadbirkor o'z o'rni va bahosini real vaqtda bilib borishi mumkin bo'ladi.

Keling, shu o'rinda rag'batlantirish mezonlariga e'tibor qarataylik. Undan soliq to'lovini o'z vaqtida va oshirib to'lash bilan bog'liq jihatlar ham o'rin olgan. Masalan, tadbirkor tomonidan QQS bir oylik soliq summasining o'rta miqdorida 10 foiz oshiq to'lansa, 10 ball bilan baholandi. Xuddi shu tamoyil aylanmadan olinadigan soliq uchun ham belgilangan. Yana bir muhim tomoni, tadbirkorlik subyektlarining reytingi quyi toifaga tushib qolgan taqdirda ham unga nisbatan jazo chorasi qo'llanilmaydi.

Bu jarayonda tadbirkorlar faoliyatiga

soliqchilar emas, elektron tizim baho beradi. Reytingi yuqori tadbirkorlar uchun barcha soliq tekshiruvi bekor bo'ldi. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi amaldagi 7 kundan 30 kungacha bo'lgan muddat o'rniga bir kunda, boshqa soliq turlari bo'yicha ortiqcha to'lovlar avvalgiday 10 - 15 kun davomida emas, balki uch kunda qaytarib beriladi.

Hozirda "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi" elektron onlayn platformasida jami 562,2 mingga tadbirkorlik subyekti baholangan. Ko'rsatkichi past bo'lgan tadbirkorlar intizomli ishlayotganlar saffiga kirish va ko'proq imkoniyatga ega bo'lish uchun harakat qiladi.

Umumiy yuqori reytingdagi tadbirkorlar soni 14 baravarga ko'payib, jami 10 mingdan oshdi. "AAA" reytingdagi tadbirkorlarning 968 tasiga 1,6 trln. so'mlik QQS summasi 1 kunda tekshiruvlarsiz qaytarib berildi.

Xavfni inson omilisiz hal etish imkoniyati

Raqamlashtirish - shaffof va ochiq-oydin, keng jamoatchilik, ya'ni iste'molchilarning murojaati yoki tadbirkorlarning o'zlari ishtirok etib tanlangan mezonlar asosidagi barqarorlik reytingiga, xavfni tahlil qilish tizimi orqali inson omilisiz hal etish imkoniyatini yaratdi.

Sohaning raqamlashtirilishi nafaqat soliq islohotlari, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatni qo'llab-quvvatlashda ham ishtirok etib, himoyaga muhtoj aholiga qator oziq-ovqat mahsulotlari xaridi bo'yicha QQS qaytarish yuzasidan "Ijtimoiy keshbek" hamda iste'moldan o'ttirilgan elektr energiyasi bo'yicha "Quyoshli xonadon"

xizmatlari orqali to'lov tranzaksiyalari to'lab berilmoqda.

Ma'lumot o'rinda ta'kidlash kerakki, shu yilning o'tgan davrida "Quyoshli xonadon" xizmati orqali 6,4 ming nafar foydalanuvchiga 10,9 mlrd. so'm, "Ijtimoiy keshbek" xizmati orqali 135,7 mingga foydalanuvchiga 21,9 mlrd. so'mlik to'lovlar amalga oshirildi.

Onlayn cheklari orqali qaysi hududda qanday dorilarga talab kuchayganligiga qarab, kasalliklarning oldini olishga qarshi tezkor qaror qabul qilish imkoniyati mavjud. Bu yaqin kelajakda har bir mahsulot taqsimotida aholi ehtiyojiga qarab iste'mol tovarlari import-eksporti, ishlab chiqarish yoki yetishtirish hajmini oldindan belgilashga imkon beradi.

Konstitutsiyamizning 93-moddasida soliq va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari deb belgilangan. Qonun chiqaruvchi organlarda fuqarolarning vakillari, ular tomonidan saylangan deputatlar o'z saylovchilari, aynan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qiladi.

Soliqlarni belgilashda fuqarolarning ijtimoiy holati va iqtisodiy ehtiyojlari, davlatning moliyaviy imkoniyatlari inobatga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi, bu Konstitutsiyamizning 149-moddasida qat'iy belgilab qo'yilgan.

Yagona soliq tizimi bir xil soliq stavkalarini va soliq yig'ish tartiblarini belgilab, fuqarolar va biznes uchun adolatli va barqaror sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Yurtimizda yaratilgan qulay investitsiyaviy ishlabarmonlik muhiti, yuritilayotgan oqilona va adolatli soliq siyosatining jozibadorligi nafaqat mahalliy ishlabarmonlar, balki dunyoga taniqli brendlarining ham qiziqishi ortishida muhim omil bo'lmoqda.

Buni elektron xizmatlar ko'rsatuvchi 61 xorijiy kompaniya O'zbekistonda soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tgani, ular tomonidan joriy yilda 101,9 mlrd. so'm soliq to'langani hamda bu raqamlar doimiy oshib borayotganligidan ham ko'rish mumkin.

Yagona soliq tizimi nafaqat soliq to'lashni, balki davlat moliyasini boshqarishni ham soddalashtiradi. Yagona tizim yordamida davlat moliyaviy resurslarini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lindi, bu esa soliq to'lovchilarga barqaror iqtisodiy sharoitlar yaratishga yordam beradi. Shu bilan birga, yagona tizim soliqlarni yig'ish va taqsimlashda shaffoflikni ta'minlaydi.

Bosh qonumimizning 115-moddasiga ko'ra samarali iqtisodiy, ijtimoiy, soliq va budget siyosati amalga oshirilishi uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi javobgar hisoblanadi.

Hukumat ijtimoiy va iqtisodiy tizimlarni uyg'unlashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi organ sifatida, soliq siyosatini amaliyotga tatbiq qilishda, Davlat budgeti va soliq yig'imlari orqali davlat ehtiyojlarini qondirishga, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy muammolarni hal qilish va fuqarolarning farovonligini yuksaltirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishni talab etadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizdagi soliq va yig'imlar bilan bog'liq barcha huquqiy me'yorlar fuqarolar hamda davlat o'rtasidagi adolatli munosabatlarni rivojlantirish, shu bilan birga, jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Sherzod KUDBIYEV, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi raisi.

Jakartada "Imom Buxoriy: O'zbekiston islom san'ati" ko'rgazmasi ochildi

Jakarta shahridagi "Istiqlol" masjidida "Imom Buxoriy: O'zbekiston islom san'ati" nomli ko'rgazma ochildi.

Biz va jahon

U O'zbekistonning bo'y madaniy merosini aks ettiruvchi, Imom Buxoriy hayoti va ijodiga bag'ishlangan noyob hamda zamonaviy texnologiyalar ko'magida yaratilgan san'at asarlari to'plamidan iborat. Ekspонатlar orasida O'zbekiston hunarmandlari tomonidan yaratilgan xattotlik asarlari, kulochilik buyumlari, kashtado'zlik hamda zargarlik san'ati namunalari, milliy liboslar va miniatyuralar o'rin olgan.

Ko'rgazmaning tanzanali ochilish marosimida Indoneziya madaniyat vaziri Fadli Zon, din ishlari vaziri - "Istiqlol" masjidida bosh imomi Nasaruddin Umar, Tashqi ishlar vazirligi madaniy-gumanitar aloqalar departamenti boshlig'i Yuliana Bahor, shuningdek, mamlakat Ulamolar kengashi rahbariyati, siyosiy doira vakillari, jamoat tashkilotlari namoyandalari ishtirok etdi. Indoneziya din ishlari vaziri

- "Istiqlol" masjidi bosh imomi Nasaruddin Umar o'z nutqida O'zbekiston haqli ravishda islom sivilizatsiyasi markazi sifatida e'tirof etilishini ta'kidladi. Arabiston yarim orolida dunyoga kelgan muqaddas dinimiz aynan O'zbekiston hududida yashab ijod qilgan ulamo va donishmandlarning sa'y-harakatlari bilan rivoj topib, yuksak cho'qqilarga ko'tarildi. O'zbekiston o'zining boy tarixi va betakror madaniyati bilan xalqlarni birlashtirish, dunyo mamlakatlari o'rtasida do'stlik kashtado'zlik hamda zargarlik san'atini yaratish salohiyatiga ega bo'lgan mamlakatdir. Shubhasiz, "Imom Buxoriy" kreativ guruhi

tomonidan tashkil etilgan ko'rgazma Indoneziyada yilning eng muhim va yorqin madaniy voqeasi bo'lib qoladi hamda ikki tomonlama munosabatlarni tarixidan munosib o'rni egallaydi. Fursatdan foydalanib, O'zbekiston hukumati uzbek loyihani qo'llab-quvvatlagani uchun minnatdorlik bildiraman. Indoneziya madaniyat vaziri Fadli Zon o'z chiqishida Imom Buxoriy islom olamining buyuk shaxslaridan biri ekanini qayd etdi. "Donishmand O'zbekiston hududida tavallud topgan. UI zotning qadimiy Samarqand yonida joylashgan maqbarasi bugungi kunda dunyo musulmonlarining

muqaddas ziyoratgohi hisoblanadi. Ushbu ziyorat amaliini bajarish har bir indoneziyalikning orzusidir. Ishonchom komilki, O'zbekiston islom san'ati ko'rgazmasi xalqimizda katta qiziqish uyg'otib, mamlakatlarimiz o'rtasidagi xalq diplomatiyasini yanada kengaytirish uchun turkii bo'ladi va madaniy-gumanitar aloqalarimizni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi", dedi madaniyat vaziri. "Imom Buxoriy: O'zbekiston islom san'ati" ko'rgazmasi 2025-yil fevral oyiga qadar davom etadi.

"Dunyo" AA. Jakarta



Yaqinda amerikalik olimlar Daron Ajemo'g'li, Jeyms Robinson va Saymon Jonsonga iqtisodiyot sohasida 2024-yilning Nobel mukofoti berilgani e'lon qilindi. Bu xabar nafaqat iqtisodchi olimlar, balki keng jamoatchilikning ham e'tiborini tortdi. Chunki mazkur olimlar bunday yuksak mukofotga ayrim davlatlar nima uchun boy va farovon, boshqalari esa qashshoq ekanligi borasidagi izlanishlari tufayli sazovor bo'ldilar. Bu mavzu esa ko'pchilikni qiziqitirishi muqarrar.



ajratiladigan mablag'larni yanada ko'paytirish ko'zda tutilgan. Xususan, maktab va maktabgacha tarbiya muassasalariga, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalarga, sog'liqni saqlash hamda madaniyat sohalariga ajratilayotgan mablag'lar ham inklyuziv rivojlanishga jalb qilinayotgan investitsiyalar sifatida iqtisodiy o'sish va samaradorlikka olib keladi, xalqimiz farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

xorijiy investorlarni jalb qilishdan boshlangan edi. Keyinchalik, 2006-yil 7-avgustda respublikamizda fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish to'g'risidagi hukumat qarori qabul qilinishi bilan ilk bor Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida Institutional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi tashkil etildi. Ushbu markazda 2006 - 2022-yillarda xususiy mulkchilik, oilaviy tadbirkorlik, mahalla va uy xo'jaligi institutlarini rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o'sishning institutsional asoslari va mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha 6 ta ilmiy loyiha bajarildi. Markazda 2023-yildan boshlab mahalla institutini inklyuziv rivojlantirish muammolariga bag'ishlangan 1 milliard 470 million so'mlik fundamental loyiha granti ustida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Shu davrda Institutional va iqtisodiy tadqiqotlar markazida 6 nafar fan doktori, iqtisodiyot fanlari bo'yicha 14 farsafa doktori tayyorlandi. Hozirgi kunda yana 2 nafar fan doktori (DSc) hamda 3 ta PhD tadqiqotchisi samarali ish olib borayotir. Markazda shu davrda universitetimiz Makroiqtisodiy siyosat va prognozlash kafedrasini orqali 80 dan ortiq magistrlar tayyorlandi va uzluksiz ravishda bakalavriat yo'nalishida talaba-yoshlar "Institutsional iqtisodiyot" fanidan bilim olmoqda. Shu bilan birga, markazda 8 ta ilmiy monografiya chop etildi, "Institutsional iqtisodiyot" darsligi o'zbek va rus tillarida qayta ishlab, 5-marta nashr qilindi.

Universitetimizda institutsional islohotlarni amalga oshirish uchun kadrlar tayyorlashni qo'llab-quvvatlovchi ilmiy maktab va salohiyatli tadqiqot markazi samarali faoliyat olib borayotgani yoshlarimizga inklyuziv ta'lim, fan va innovatsion jarayonlarda uzluksiz ishtirok etish uchun yanada keng yo'l ochib bermoqda.

Bozorboy BERKINOV, TDIU profesori, Institutsional va iqtisodiy tadqiqotlar markazi ilmiy rahbari, iqtisodiyot fanlari doktori.

Fikr

Taraqqiyotni ta'minlovchi sa'y-harakatlar asosi

Tarixga nazar tashlasak, amerikalik nazariyotchi olim T. Veblen "Jamiyat azaldan institutlar qobig'ida shakllangan" deb e'tirof etgan. Ya'ni aynan institutlar odamlar yashash tarzining shakllanishi, oila paydo bo'lishi, ular guruhlariga birlashib yashashdan yuzaga kelgan. Demak, institutlar insonlar ongi, aql-idroki, hayot uchun kurash zaruriyati bilan yaratiladi, ularni ko'z bilan ko'rib, jisman o'lchab bo'lmaydi. Ular ta'sir kuchiga ega bo'lgan hokimiyat va odamlarni harakatga keltiruvchi qoidalar sifatida namoyon bo'ladi.

Nobel mukofotiga munosib ko'rilgan D. Ajemo'g'li, J. Robinson va S. Jonson o'z tadqiqotlarida ana shu institutlar rivojlanish tarixini chuqur o'rganishda davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi sabablarini aniq dalillarga tayanib ochib bergan. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Nobel sovrindorlarining iqtisodiy institutlarni inklyuziv va ekstraktiv toifalarga ajratganliklari davlatlar taraqqiyoti sabablarini haqqoniy baholashda bosh mezon sifatida asosiy ahamiyatga ega bo'lgan.

Inklyuziv iqtisodiy institutlar - bu mamlakat iqtisodiyotiga va uning barqaror rivojiga sarmoya kiritishga qaratilgan institutlar bo'lib, ular inklyuziv o'sishning afzalliklarini kengroq e'tirof etadi. Shuning uchun butun jamiyat va uning alohida guruhlari ham ushbu iqtisodiy o'sishdan manfaatdor bo'lib, xususiy mulk huquqini himoya qilishga, raqobatga, iqtisodiyotdagi subyektlar o'rtasidagi shartnomalarni o'z vaqtida bajarishga qaratilgan siyosatni qo'llab-quvvatlaydi.

Ekstraktiv institutlar esa iqtisodiy jarayonlarda ozchilikni tashkil qiluvchi

guruhlarining ko'proq foyda ko'rishiga yo'l ochadi. Bunday jamiyatda korrupsiya baland, barqarorlik ancha past bo'lib, ijtimoiy hamjihatlik bo'lmaydi. Bu esa rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bois iqtisodiyot subyektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarda mavjud inklyuziv institutlarni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish davlatning iqtisodiy boyishiga va farovonlikka erishishiga sabab bo'luvchi asosiy omildir.

Gap shundaki, har qanday davlat va jamiyat, uning iqtisodiy agentlari ma'lum bir institutlar doirasida faoliyat yuritir ekan, vaqt o'tishi bilan ana

tahrirdagi Konstitutsiyamizda, "O'zbekiston - 2030" strategiyasi va uning bajarilishini ta'minlovchi yangi institutlar, mamlakatimiz qonunlarida, shuningdek, xalqimiz urf-odatlarini, diniy e'tiqodlarini hisobga oluvchi institutsional-huquqiy normalarda ko'rishimiz mumkin.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida inklyuziv institutlar nafaqat iqtisodiyot, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va boshqa tarmoqlarga ham jadal kirib bormoqda. Bu harakatlarimiz yurtimizda birgalikda olib borilayotgan keng ko'lami strategik islohotlar samaradorligining oshishiga, faol

"Bugun O'zbekistonda ishlab turgan ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda 33 mingdan ortiq mutaxassis-tadqiqotchilar faoliyat olib boradi. Ular qatorida inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga munosib hissa qo'shayotgan "TOR - 20" "aql markazlari", sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va institutsional iqtisodiyot kabi ilmiy markazlarda ilm-fan va innovatsiyalar rivojiga o'z mehnatlari bilan hissa qo'shayotgan olimlarimiz ko'pchilikni tashkil etadi."

shu institutlar "eskiradi" va ular taraqqiyotning ichki tablari va tashqi omillar ta'siri ostida rivojlanishga to'siq bo'lib qoladi. Shunday holatlarda talabga mos kelmaydigan institutlarni tubdan takomillashtirish yoki yangi institutlarni joriy etish zarurati paydo bo'ladi.

O'zbekiston aynan shu talabdan kelib chiqib, tarixan qisqa davr mobaynida davlat va jamiyat qurilishini tartibga soluvchi, bozor tamoyillariga asoslangan yangi institutlarni ta'sis etdi va mamlakatimizda shunga mos institutsional muhit yaratildi. Bunday institutsional o'zgarishlarni yangi

iqtisodiy o'sishga hamda aholining ijtimoiy farovonlikka erishishiga olib kelmog'ga zarur. Bularga biz inson kapitali sifatini yaxshilash uchun investitsiyalar kiritish ko'lamini kengaytirish, yangi innovatsion oqimlar va texnologiyalarni amaliyotda qo'llash, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy erkinligi, xususiy mulkka qat'iy egalik qilish, yaratuvchanlik harakatlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'llari bilan erishmoqdamiz.

Shuni ta'kidlash zarurki, 2025-yilda O'zbekistonda iqtisodiy inklyuziv institutlarning rivojlanishini ta'minlash uchun Davlat budgetidan

Inklyuziv rivojlanish uchun bilimli kadrlar

O'zbekistonda ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga doimo katta e'tibor qaratib kelinadi. Hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liq muammolarni samarali hal etishga yo'naltirilgan 289 ta ilmiy-tadqiqot instituti va loyiha byurosi faoliyat yo'lga qo'yilgan. Shu bilan bir vaqtda, oliy ta'lim tizimida 62 ta ilmiy markaz hamda yirik laboratoriyada yuqori malakali kadrlar izlanishlar olib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimiz olimlarining o'zaro hamda xorijiy hamkorlar bilan ilmiy kooperatsiya aloqalari yanada kuchayishiga olib kelmoqda.

Bugun O'zbekistonda ishlab turgan ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarda 33 mingdan ortiq mutaxassis-tadqiqotchilar faoliyat olib boradi. Ular qatorida inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga munosib hissa qo'shayotgan "TOR - 20" "aql markazlari", sun'iy intellekt, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va institutsional iqtisodiyot kabi ilmiy markazlarda ilm-fan va innovatsiyalar rivojiga o'z mehnatlari bilan hissa qo'shayotgan olimlarimiz ko'pchilikni tashkil etadi.

Shu bois ishonch bilan aytish mumkin, Nobel mukofoti sovrindorlari turli bosqichlarda ilgari surgan g'oyalari, ilmiy natijalar bizning mamlakatimizda nafaqat inklyuziv iqtisodiy institutlarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga, balki oliy iqtisodiy ta'lim sohalariga ham keng tatbiq etilgan.

Mamlakatimizda institutsional iqtisodiyot yo'nalishlaridagi dastlabki ilmiy tadqiqotlar 1998-yilda xususiylashtirish jarayonlariga

YANGILIKLAR xabarlar
TAFSILOTLAR

2025-yilda darslik ijarasi bepul bo'ladi

Iqtisodiyot va moliya vazirligi ota-onalardan darsliklar va mashq daftarlari ijarasi uchun qo'shimcha to'lov undirish rejalashtirilmagani xususida ma'lum qildi.

Vazirlik xabariga ko'ra joriy yilda maktab o'quvchilari uchun 83,2 mln. nusxa darslik va mashq daftarini yetkazib berish uchun Davlat budgetidan jami 1,5 trln. so'm ajratilgan. Ushbu mablag'larning 435,5 mlrd. so'mi (yoki 36 foizi) davriylik 1 yil hisoblanadigan hamda har yili yangidan chop etiladigan mashq daftarlari uchun yo'naltirilgan.


2025-yilda esa 81 mln. nusxa darslik va mashq daftarlari uchun jami 1,3 trln. so'm mablag'ni Davlat budgetidan qoplash ko'zda tutilgan. Bu esa yangi o'quv yilida o'quvchilarni darsliklar hamda mashq daftarlari bilan ta'minlash bo'yicha ehtiyojni to'liq qoplash imkonini beradi.



O'zbekiston Xalqaro motosport federatsiyasiga a'zo bo'ldi

Yaqinda Ispaniyada o'tgan Xalqaro motosport federatsiyasi (FIM)ning bosh assambleyasida O'zbekiston milliy iqtisodiy va karting federatsiyasi FIM a'zosi bo'lgani e'lon qilindi.

Assambleyada ishtirok etgan 95 ta milliy federatsiya delegatlarining 98 foizi O'zbekiston milliy avtosport va karting federatsiyasini FIM a'zoligiga qabul qilish to'g'risidagi taklifi qo'llab-quvvatladilar. Ma'lumot uchun, 1904-yilda tashkil etilgan Xalqaro motosport federatsiyasi 120 dan ortiq milliy federatsiyalarni birlashtirib, sport turlari bo'yicha musobaqalarni boshqaradi. Ushbu xalqaro federatsiyaga a'zo bo'lish O'zbekistonga xalqaro musobaqalarda qatnashish, boshqa mamlakatlar bilan tajriba almashish, moto hamda avtosportni rivojlantirish imkonini beradi.



Talabalar uchun sayyor kassalar tashkil etildi

Qishki ta'til munosabati bilan Toshkent shahridagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarining doimiy yashash manzillariga yetib borishlarida qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida sayyor kassalar tashkil etildi.

Bu haqda Transport vazirligi ma'lum qildi. Mazkur sayyor kassalarda talabalar temir yo'l hamda avtobus qatnovlariga chiptalarni sotib olishi mumkin.

Sayyor kassalar O'zbekiston Milliy universitetining o'zbek filologiyasi fakulteti va Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining A-binosida tashkil etilgan.



Elektrobuslarning navbatdagi partiyasi

Samarqand O'zbekistonda YETTbning "Yashil shaharlar" dasturiga qo'shilgan ilk shahar bo'ldi. Loyiha doirasida Samarqand shahar jamoat transporti yo'nalishlarida elektrobuslar harakati yo'lga qo'yilishi belgilangan.



Bugungi kunga qadar shaharga 36 ta elektrobus olib kelib, yo'lovchilar xizmatiga chiqarildi. Mazkur elektrobuslar Temir yo'l vokzali - Samarqand xalqaro aeroporti, Vatandar mahallasi - Samarqand tumani shifoxonasi, Temir yo'l ABB - Siyob ABB va Temir yo'l ABB - Temir yo'l ABB (halqa yo'nalishi) shahar avtobus yo'nalishlarida aholiga transport xizmatini ko'rsatib kelmoqda.

E'tiborlisi, mazkur loyiha doirasida Samarqand shahriga yana 15 ta elektrobus quvvatlash quurilmalari bilan birga olib kelindi.

Yil yakuniga qadar elektrobuslarning umumiy sonini 100 taga yetkazish rejalashtirilgan.

Rahim ShERQULOV
("Xalq so'zi") tayyorladi.

XABAR

"Mahalla" xayriya jamoat fondi Toshkent shahar bo'limi boshqaruvi Toshkent shahar Adliya boshqarmasi tomonidan 2017-yil 14-sentabrda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan Toshkent shahar "Mahalla" fondining quyidagi tuman bo'linmalari faoliyati to'g'risidagi guvohnomaning asli yo'qolganligi haqida ma'lum qiladi:

№	Tuman	Guvohnoma	STIR raqami
1.	Uchtepa	537p-son	200 661 770
2.	Sergeli	530p-son	200 648 825
3.	Mirobod	528p-son	201 303 240
4.	Yangiyahoyot	886p-son	207 334 357
5.	Shayxontohur	531p-son	202 436 289

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI
quyidagi kafedralar bo'yicha lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

Musiqqa nazariyasi kafedrasini kafedra mudiri - 1 o'rin;
Maxsus fortepiano kafedrasini kafedra mudiri - 1 o'rin;
Xalq cholg'ularida ijrochilik kafedrasini kafedra mudiri - 1 o'rin, dotsent - 1 o'rin;
Musiqqa tarixi va tanqidi kafedrasini professor - 1 o'rin;
Kompozitorlik va cholg'ulashtirish kafedrasini professor - 2 o'rin, dotsent - 1 o'rin, katta o'qituvchi - 2 o'rin;
Akademik xonandalik va opera tayyorlovi kafedrasini professor - 1 o'rin;
Konsertmeysterlik mahorati kafedrasini professor - 1 o'rin;
O'zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasini professor - 1 o'rin;
O'zbek musiqasi tarixi kafedrasini dotsent - 1 o'rin;
Orkestr dirijyorligi kafedrasini dotsent - 1 o'rin;
Torli cholg'ular kafedrasini dotsent - 2 o'rin;
Fakultetlararo fortepiano kafedrasini dotsent - 1 o'rin, katta o'qituvchi - 1 o'rin;
Musiqiy pedagogika kafedrasini katta o'qituvchi - 2 o'rin;
Puflama va zarbli cholg'ular kafedrasini katta o'qituvchi - 2 o'rin.

Arizalar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida O'zbekiston davlat konservatoriyasining xodimlar bo'limi tomonidan qabul qilinadi.

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Botir Zokirov ko'chasi, 1-uy.

РЕКЛАМА

Mamlakatimiz umumta'lim maktablarida III chorak darslari 2025-yil 13-yanvardan boshlanadi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-2142. 10 908 nusxada bosildi. Hajmi - 2 taqob. O'fset usulida bosilgan. Qo'g'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxonona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 21.10 Topshirildi - 00.00 1 2 3 4 5 6